

## INGLIZ TILIDA MODAL SO‘ZLARNING KELIB CHIQISH TARIXI

**Dilraboixon Sirojiddinova Baxtiyor qizi**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Farg‘ona filiali Xorijiy tillar kafedrasida assistent o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola tilshunoslikda modallik hodisasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda turli xil fikrlar uchraydi. Modallik gapni shakllantiruvchi kategoriya yoki gapga xos bo‘lgan tarkibiy qism ekanligi haqida qarashlar mavjud bo‘lib ularni o‘rganish davomida modal so‘zlarning qanday so‘zlardan kelib chiqqanligi ham bizni izlanishga chorladi. Shuningdek o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun misollar asosida izohlab ham o‘tilgan. Modallikning tilshunoslikda shakllanish jarayoni ham uning muloqotdagi ma‘noni yoritib berishga qay darajada ahamiyatli ekanligi ham izlanishlar davomida o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** modallik, kategoriya, muloqot, aspekt, perfekt, mustaqil fe‘l, asosiy fe‘l, qadimgi ingliz tili.

### ANNOTATION

*This article is devoted to the phenomenon of modality in linguistics, in which there are different opinions. There are opinions that modality is a category that forms a sentence or a component characteristic of a sentence, and during their study, we were also invited to research what words modal words come from. It is also explained on the basis of examples to make it understandable to the reader. The formation process of modality in linguistics and how important it is to illuminate the meaning in communication have been studied during research.*

**Key words:** modality, category, communication, aspect, perfect, independent verb, main verb, Old English.

**KIRISH:** Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi. Modallik kategoriyasiga gap modalligini ta‘minlashga xizmat qiladigan xilma-xil vositalar kiritiladi. Bu esa xatto modallikning aloxida til kategoriyasi sifatida mavjudligini ham shubxa ostiga qo‘ydi. Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ko‘rsatiladi: mayl, zamon va shaxs son qo‘shimchalarining aloxida qurilmalari, yuklamalar, so‘z tartibi, intonatsiya, yuklama

vazifasidagi so‘roq olmoshlari, mundalmalar, kirish so‘z va gaplar, ko‘rinib turibdiki, bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affikslari), leksik (so‘zlarning turli guruxlari), sintaktik (aloxida gap qurilmalari so‘z tartibi, takror va fonetik vositalar ya’ni intonatsiyalar) kiritiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ilmiy adabiyotlarda modallik haqida turli fikrlar mavjud. Rasulovning izohicha ma’lum konstruksiyaning gap bo‘lib kelishi uchun shart bo‘lgan predikativlik gapda ifoda qilingan fikrning real borliqqa bo‘lgan munosabatini bildirib, turli konstruksiyadagi gaplarda turlicha ifoda qilinadi. G‘. Zikrillayev bu modallik doirasida o‘zaro zid bo‘lgan real va noreal modalliklarni ajatib o‘rganishni tavsiya etadi. Reallik modalligi gapda amalda mavjud bo‘lgan faktlar haqida fikr bayon qilinganligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda reallik gap mazmunining voqelikka mos kelishini ko‘rsatishi haqida fikrlarni bergan. Shuningdek ushbu maqolani yozishda mavzuga aloqador bo‘lgan ilmiy maqolalardan ham foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Modallik ma’nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Uni ifoda etuvchi vositalar ham rang-barangdir.

1. Modal fellar asosan infinitiv formasidagi fe’llar bilan ishlatiladigan infinitiv har xil bo‘lishi mumkin.

a. Umumiy aspektdagi perfekt bo‘lmagan infinitive: I must go, Padre; the students will be waiting for me. [ Kipling ]

b. Umumiy aspektdagi perfekt infinitiv: You ought to have seen the til he had on.

c. Davomli aspektdagi perfekt infinitive : The look in his eyes might well have been disquieting to anyone left alone wish him on an island is the middle of a lake.

d. Davomli aspektdagi perfekt bo‘lmagan infinitiv: She oughtn’t to be thinking about spending her money on theatres already, do you think he nodded.

e. Passiv nisbatdagi infinitiv. All this must be changed. f. Passiv nisbatdagi perfekt infinitive. It might have been considered beautiful at one time.

1) Modal fe’llardan keyin kelgan mustaqil fe’l infinitiv formasida yuklamasisiz ishlatiladi. Leksik modal fe’li bungan mustasno.

2) Modal fe’llar bilan III shaxs birlikda shaxs qo‘shimchasi ishlatilmaydi.

3) Modal fellarning ayrimlari ikkita zamon formasida: can – could, may – might, shall – should, will – would boshqalari esa faqat bitta o‘zgarma shaklda keladi: must, ought, need kabilarni sanab o‘tishimiz mumkin. Bizga ma’lumki hozirgi ingliz tilida quyidagi kabi modall fe’l turlari mavjud: **can, may, must, need, dare, wish, should, would, desire, to try, to be** kabilarni aytib o‘tishimiz mumkin va bu modal fe’llar o‘zlari mustaqil holda ishlatilmaydi. Ular asosiy fe’lning infinitive bilan

ishlatiladi va asosiy fe'l ifodalagan ish – harakatning bajarilish imkoniyatini, qobiliyatini, ehtimolligini, zarurligini, mumkinligini bildiradi. Modal fellardan sozlashuv jarayobida foydalaniladi. Qadimgi ingliz tilida ularni muallif nutqida uchratishimiz mumkin. Faqatgina istisnolarni modal fellarning otgan zamon shakllari could, would, had, might, kabilar hikoya nutqida va sozlashuvda foydalanilmaganligida koramiz. Shunday qilib, siz zamonaviy ingliz tilida quyidagi modal fellar: ought to, must, shall, should, will, had, dare, to have va to be modal fel sifatida foydalaniladi. May modal feli kuchli ehtimollikni 97 % va 3% ruxsatni ifodalab keladi. Modallar qat'iy ruxsatni esa can 58%, may 16%, could 13% va might 13%, will 17%, ishlatiladi. Uch eng muhim takrorlanadigan modallar would 28 %, could 17% va will 17% hisoblabadi. Quyidagi kabi modal fe'llar o'z navbatida o'z ekvivalentlariga ham ega.

Modal fellarining quyidagilari izlanishlanimz davomida kelib chiqish tarixlarini izohlashga harakat qildik. **Can** va **could** modallari qadimgi ingliz tilidagi **can** va **cup** fe'llaridannolingan. **Cunnan** fe'lining hozirgi va o'tgan zamonlarda o'rin almashinishi mumkin. (Cunnan– to be able to) Shuningdek, **may** va **might** Qadimgi Ingliz tilidagi **m..d** va **meahte** dan kelib chiqqan, **magan** ning hozirgi va o'tgan zamon formalari bilan o'rin almashinishi mumkin. **Shal** va **should** esa **seal** va **seolde** shakllaridan olingan. Va **will** va **would**, **wille** va **would** dan olingan. Yuqorida aytib o'tilgan Qadimgi Ingliz tili fe'llari **cunnan**, **magan**, **sculan** va **willan** o'tgan - hozirgi zamon paradigmasida ifodalanadi. **Must** fe'li Qadimgi Ingliz tilida **moste** fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, **motan** ( to be able to, be obliged to ) fe'lining bir qismi hisoblanadi. Bu o'tgan zamondagi **moste** fe'lining boshqa o'tgan – hozirgi zamon shakli edi. **Mot** ning hozirgi zamon shakli **mote** felining Ilk Zamonaviy Ingliz tilida modal fe'l sifatida ishlatilishi ortdi. Lekin, **must** ning hozirda ajralmas ma'nosi yo'qolgan va **mote** shakliga o'tgan. Odatdagidek, **ought** asl o'tgan zamon shakli – **ahte** fe'lidan olingan, **agan** ning o'tgan zamon shakli ( to own ), boshqa Qadimgi Ingliz tili o'tgan – hozirgi zamon fe'li qaysikim, **ah** fe'lining hozirgi zamon shakli **owe** zamonaviy fe'li kirib keldi. (owe fe'lining o'tgan zamon shakli sifatida ought ishlatilgan ) . **Dare** fe'li ham o'tgan – hozirgi zamon fe'lidan kelib chiqqan, **durran** ( to dare ), uning maxsus hozirgi zamon shakli **dare** ( r ), hamda uning Zamonaviy Ingliz tilida modalmas sifatida ishlatilishida u butunlay tuslanadi. Biroq, **need** fe'li odatiy Qadimgi Ingliz tilidagi **neodian** ( ma'nosi **to be neccessery** ga teng ) fe'lidan kelib chiqqan muqobil III shaxs shakli **need** qaysikim modal vazifalarida me'yor bo'lgan va XVI asrda umumiy hisoblang.

## XULOSA

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan mavzular ya‘ni modallikni o‘rganishdagi xozirgi kunga qadar davom etayotgan izlanishlardan va muammoli vaziyatlarning muhokamalaridan kelib chiqqan holda aytadigan bo‘lsak, bu mavzu yechimi topilmagan masalalar, yo‘nalishlar va qiyosiy tahlilga muhtoj yechimlar ko‘pligi ko‘zga tashlandi. Shu o‘rinda ularning kelib chiqishida bo‘lgan rivojlanishlar hamda ularning bugungi kundagi shaklga kelguncha bo‘lgan o‘zgarishlarni maqolamiz yoritib berishga harakat qildik.

## Adabiyotlar ro‘yxati (REFERENCES)

1. Hoshimov U, Buranov J, “ Ingliz tili grammatikasining normativ kursi “ T.: „O‘qituvchi”- 1987
2. G‘apparov M, Qosimova R, “ Ingliz tili grammatikasi “ T.: -2008
3. Tuxtanzarova, S. (2023). A MODERN APPROACH TO TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 112-116.
4. Sarvinoz, T. (2023, October). LANGUAGE ACQUISITION: UNRAVELING THE COMPLEX PROCESS OF LEARNING AND USING A LANGUAGE. In *Conference on Digital Innovation: " Modern Problems and Solutions "*.
5. Sirojiddinova, D. B. (2022). BRIEF INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF LINGUOCULTURALOLOGY. *SO ‘NGI ILMYIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(4), 131-134.
6. Sirojiddinova, D. B. Q., & Murodova, S. A. Q. (2022). Ingliz tilida modal fe‘llarining o‘ziga xos xususiyati. *Science and Education*, 3(1), 419-423.
7. Sirojiddinova, D. (2022). MULOQOT–SHAXSLARARO AXBOROT ALMASHINUV JARAYONI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(5), 335-337.
8. Sirojiddinova, D. B (2023). MULOQOT VA MADANIYAT, Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi-4\3-2023